ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

RIVOJLANGAN VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR TAJRIBASIDA BARQAROR TURIZM MODELI

Majidova Mahliyo Shomilovna
QarDU Iqtisodiyot fakulteti
Turizm yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Email: mahliyomajidova45@gmail.com

Annotatsiya: Malumki rivojlangan davlatlar o‘z iqtisodiy foydasining ko‘p ulushini turizm sohasi orqali topadi va ular o‘zlarining barqarorlashgan turizm modeliga ega bo‘lib, bu modellar orqali kelajakda ham soha qanday darajada rivoj topib, o‘sishini pragnoz qila oladilar. Ular sohani faqat mijozlarga yaxshi xizmat ko‘rsatish va innovatsion texnalogiyalardan foydalanish bilangina emas, balki turizmni har tomonlama o‘rganish va tahlil qilish orqali barqarorlashtirishga harakat qiladilar. Mazkur maqolada aynan mana shu rivojlanayotgan va shu bilan birga rivojlanib borayotgan davlatlarning tajribalari va ularning rivojlanishida ekologiyaning tutgan o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Barqaror turizm, YAIM, CO2 emissiyasi, dekarbonizatsiya, smart tourism, green hotel, GSTC, green destination,

Kirish: So‘ngi yillarda turizm sohasiga jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanib borayotgan tarmoqlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, turizm sanoati **YAIM**ning muhim qismini tashkil etadi va aholi uchun millionlab ish o‘rinlarini yaratib beradi. Shu bilan birgalikda, turizm faoliyati ekologik muhitga ham o‘zining sezilarli ta’sirini ko‘rsatib kelmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, turizm sektori global karbon chiqindilarining taxminan **5%** ini tashkil etadi va bu ko‘rsatkich kelajakda yanada oshishi mumkinligi tahmin qilinmoqda. Shu sababli barqaror turizmni rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Barqaror turizm - bu turizm orqali iqtisodiy foydani ta’minlagan holatda ekologik muhitni hamda mahalliy aholi manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan faoliyatdir. So‘nggi yillar davomida global miqyosda barqaror turizmga bo‘lgan e’tibor keskin oshib borgan. **2024-yil**da sayohatchilarning **80%** dan ortig‘i ekologik jihatdan mas’ul turizm muhim deb hisoblaganlar. Ularning bu xulosaga kelishiga **2019-yil**da boshlangan va butun jahonda yuz bergan virusli epidemiya holati hamda yaqin yillar ichida va hozirda ham ba’zi davlatlarda sodir bo‘layotgan notinchliklar sabab bo‘lgan bo‘lishi ehtimoli ham mavjud. Shu tufayli hududlardagi ekologik barqarorlik va siyosiy barqarorlik mehmondo‘stlik sohasida turistlarni jalb qilishda muhim omillar sifatida ko‘riladi. Barqarorlikni qo‘lga kiritish esa turizm industriyasida **“yashil iqtisodiyot”** tamoyillarining keng joriy etilayotganidan dalolat beradi.

Adabiyotlar tahlili: Ekologiya va barqaror rivojlanish bo‘yicha taniqli olim Luc Hens va barqaror turizm va ekologik boshqaruv yo‘nalishida ishlovchi tadqiqotchi An Thinh Nguyenlar tomonidan yaratilgan **“***Sustainable Tourism and Its Environmental and Human Ecological Effects”* kitobi aynan biz izlagan barqaror turizm, ekologiya hamda ijtimoiy ta’sirlar haqidagi ma’lumotlarni beradigan manba hisoblanadi. Ushbu kitobda barqaror turizm tushunchasi nazariy jihatdan uchta asosiy ustunga tayanishi haqida aytib o‘tilgan.

- ***Ekologik barqarorlik***
- ***Ijtimoy barqarorlik***
- ***Iqtisodiy barqarorlik***

Bundan ko‘rinadiki barqaror turizm modeli bu - iqtisodiy manfaatlar bilan bir qatorda ekologik muhofaza va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan kompleks tizim hisoblanadi. Demak barqarorlik faqatgina iqtisodiyotning o‘zidagina emas, balki hududlar ekologiyasi va jamiyatda bo‘lishi kerakliligi ham talab qilinar ekan. Bunday yutuqlarga erishish uchun esa albatta turizm sohasini har tomonlama rivojlantirish katta rol o‘ynaydi, chunki turizm sohasi aholi uchun yangi ish o‘rinlarini yaratadi va daromatlarni oshiradi, ko‘proq turistlarni jalb qilish uchun ham hudud tozaligi va estetik jihatdan diqqatga sazovvor ekanligi ta’minlanadi, shuningdek jamiyatning mehmondo‘st xalq bo‘lib shakllanishiga turtki bo‘ladi. Rivojlangan davlatlarga turizmning qanday ekologik ta’siri bor ekanligi

Osiyo va **Yevropa** mintaqalaridagi bir qancha hududlar misolida ko‘rib chiqilgan. Turizm natijasida hududlarda chiqindilar ko‘payishi, CO2 emissiyasi ortishi, tabiiy resurslar kamayishi mumkin, ammo rivojlangan davlatlarda turizmning jadal rivojlanishi ekologik bosimni kuchaytirgan bo‘lsada, samarali boshqaruv mexanizmlaridan keng foydalanish bu ta’sirlarni anchagina kamaytirmoqda. Ko‘pchilik rivojlangan davlatlarda raqamli texnologiyalar turizmni boshqarishda, hamda barqarorlikni ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Kitobda shuningdek Vetnam, Janubiy Korea, Tayvan kabi orol va maxsus hududlar tajribasi keltirilgan. Bu hududlarda ham turizm sohasi mahalliy iqtisodiyotni anchagina rivojlantirsada, ammo ekologik muhitga o‘zining salbiy ta’sirlarini ko‘rsatmay qolmaydi. Shu sababli ham, hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda turizmni boshqarish barqaror rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Ushbu ilmiy manbada **“Low-carbon tourism”** ya’ni past karbonli turizm tushunchasi berilgan bo‘lib, bu model orqali energiya tejash va ekologik transport muhitini yo‘lga qo‘yish mumkinligi haqida qiziqarli faktlar yoritilgan. Rivojlangan davlatlar bu modelni yo‘lga qo‘yish orqali ekolgik barqarorlik ta’minlanganligini inobatga olsak bu modelni qo‘llash hududlar istiqboli uchun bir qancha yengilliklarni yaratadi deb hisoblashimiz mumkin. Hammamizga malumki global miqyosda butun dunyo bo‘ylab tarqalgan **COVID-19** epidemiyasi rivojlangan davlatlarning iqtisodiyotini chetlab o‘tmadi. Bu virusli kasallik tufayli deyarli butun jahondagi davlatlar karantin holatini e’lon qilib, chetdan tashrif buyurayotgan sayyohlar uchun yopiq eshiklar siyosatini tutishga majbur bo‘ldi. Ayniqsa turizm orqali foyda oladigan ko‘pchilik davlatlar iqtisodiyoti inqirozga uchray boshladi. Buni oldini olish uchun esa, sohaga ko‘plab yangilik va qo‘shimchalar kiritila boshlandi. Holat barqaror turizm modeliga o‘tish zaruratini kuchaytirishga turtki bo‘ldi. Pandemiya davri turizmni qayta ko‘rib chiqishga olib kelib, barqaror va xavfsiz turizm modeliga o‘tishni tezlashtirib yubordi.

Turizm bo‘yicha tadqiqotchi Rob Harris, Kanadalik olim Peter Williams hamda barqaror turizm va ekoturizm bo‘yicha mutaxassis Tony Griffin birgalikda tayyorlagan *“Sustanable tourism”* nomli kitobi - bu barqaror turizmni rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan murakkabliklarni hamda ushbu konsepsiya bilan bog‘liq ekologik, iqtisodiy hamda ijtimoiy chaqiriqlarga davlat organlari va turizm sanoati tomonidan bildirilayotgan javob choralarini ilmiy jihatlar bilan tahlil qilishga qaratilgan manba hisoblanadi. Davlat va sanoat tashkilotlari turizm muammolarini hal qilish uchun turli boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqadi. Masalan **“Green Globe 21”** kabi ekologik sertifikatlash tizimlari turizm obyektlarining ekologik standartlarga mosligini baholashga xizmat qiladi. Bu sertifikatlash turi orqali turistik korxonalar ya’ni mehmonxonalar, kurortlar, sayyohlik tashkilotlarining barqarorligi nazorat qilinadi. **“Blue Flag”** xalqaro sertfikatlash dasturi esa plyajlar va suv havzalarining ekologik tozaligini saqlashga qaratilgan xalqaro tashabbus hisoblanadi. Dastur **1987-yil**da **Yevropa**da paydo bo‘lgan va hozirda butun dunyoda qo‘llaniladi. Uning asosiy vazifasi - plyaj va suv hududlarining xavfsiz va ekologik barqaror ekanini ta’minlashdir. Kitobdan yana shuni xulosa qilib olish mumkinki, barqaror turizmni rivojlantirishda ta’lim, akkreditatsiya va ekologik ongni oshirish juda muhim hisoblanadi.

European Travel Commission Report 2025 ma’lumotlariga ko‘ra, Yevropa turizm bozori barqaror turizm modeliga tez moslashib bormoqda. Hisobotda qayd etilishicha, Yevropa turistlarining 70 foizdan ortig‘i ekologik mas’uliyatli sayohat variantlarini tanlashga moyillik bildirgan bo‘lib, ular “green hotel”, ekologik transport va tabiiy hududlarga asoslangan turizm xizmatlariga ko‘proq qiziqish bildirmoqda. Shu bilan birga, Yevropa Ittifoqi davlatlarida mehmonxonalarning taxminan 43 foizi ekologik sertifikatlash tizimlariga qo‘shilgan bo‘lib, bu barqaror turizm infratuzilmasining kengayib borayotganini ko‘rsatadi.

Hisobotda shuningdek, Germaniya, Shveysariya va Niderlandiya kabi rivojlangan davlatlarda “green destination” konsepsiyasi asosida turistik hududlarni boshqarish tizimi faol joriy etilgani ta’kidlanadi. Ushbu mamlakatlarda karbon chiqindilarini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik transport tizimlarini rivojlantirish orqali turizmning atrof-muhitga salbiy ta’siri sezilarli darajada kamaytirilmoqda. Bundan tashqari, Yevropa bo‘yicha turistlarning katta qismi mahalliy madaniyatga asoslangan va tabiatga zarar yetkazmaydigan turizm shakllarini afzal ko‘rishi barqaror turizm modelining tobora ommalashib borayotganini tasdiqlaydi.

Global Sustainable Tourism Council (GSTC) ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda dunyo bo‘yicha ko‘plab turistik destinatsiyalar va mehmonxona tarmoqlari barqaror turizm standartlarini joriy etish orqali ekologik va ijtimoiy mas’uliyatni oshirmoqda. GSTC ishlab chiqqan global standartlar asosida

turizm korxonalari tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, mahalliy madaniyatni qo‘llab-quvvatlash hamda ekologik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha tizimli yondashuvga o‘tmoqda. Shuningdek, GSTC sertifikatlash tizimi orqali yuzlab turizm obyektlari va destinatsiyalar barqaror turizm mezonlariga mos ravishda baholanib kelinmoqda. Bu jarayon rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda “green tourism” va “responsible tourism” konsepsiyalarining keng joriy etilishiga xizmat qilmoqda. Natijada, turizm sanoatida ekologik boshqaruv tizimlari kuchayib, barqaror rivojlanish tamoyillari amaliyotga tobora chuqurroq singib bormoqda.

Tadqiqot metadalogiyasi: Tadqiqotlar jarayonida bir-qancha tizimli yondashuvdan foydalanilib, turizm sohasi iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida tahlil qilindi. Shu asosda rivojlangan davlatlar, misol sifatida Germaniya, Shveysariya, Yaponiya kabi mamlakatlar hamda rivojlanayotgan davlatlar - Vetnam, Indoneziya va boshqa davlatlarning barqaror turizm tajribasi qiyosiy jihatdan o‘rganiladi. Mazkur taqqoslash orqali turizmni barqaror rivojlantirishning samarali mexanizmlari, ekologik boshqaruv usullari va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari aniqlanadi.

Asosiy qism: Turizmning ekologiyaga ta’siri rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda turlicha namoyon bo‘ladi. Masalan, **Yevropa** davlatlari, xususan, Fransiya, Ispaniya va Italiyada turistlar oqimining yuqoriligi tufayli atmosferaga chiqarilayotgan karbon chiqindilari ortib bormoqda. Shu bilan birgalikda, ushbu davlatlarda turizmni barqarorlashtirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular orqali turizm mavsumini muvozanatlashtirish, transport tizimini dekarbonizatsiya qilish va ekologik infratuzilmani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, **Fransiya** hukumati ishlab chiqqan **“Destination France”** milliy strategiyasi turizmni ekologik barqaror yo‘nalishda rivojlantirishni maqsad qilib qo‘ygan. Bu dastur orqali mehmonxona va transport xizmatlari sifatini oshirish, zamonaviy va qulay bo‘lgan raqamli texnalogiyalarni joriy etish hamda turistlar uchun yuqori sifatli xizmat yaratish ko‘zda tutilgan. **Germaniya** tajribasida esa **“yashil turizm”** tamoyillari asosida ekologik standartlar joriy etilgan bo‘lib, u turistik obyektlarida energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda ekologik transport vositalarini rivojlantirish orqali karbon chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan. Bu esa turizm faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta’sirini sezilarli darajada kamaytirishga va aksincha uning foydali jihatlari ko‘p ekanligini ko‘rsatib berishga xizmat qilmoqda. Shu bilan bir qatorda **Yaponiya** tajribasiga to‘xtalib o‘tiladigan bo‘lsak uning tajribasi barqaror turizmni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish orqali boshqa davlatlarga nisbatan alohida ajralib turadi. Mamlakatda **“aqlli turizm”** (smart tourism) tizimi joriy etilgan bo‘lib, u turizm oqimini nazorat qilish, resurslardan samarali foydalanish va ekologik muvozanatni saqlash imkonini yaratadi. Ayniqsa, chiqindilarni qat’iy saralash tizimining joriy etiganligi ham ekologik barqarorlikni ta’minlab berishda muhim rol o‘ynamoqda. **Kanada** davlatida esa turizm sohasi tabiiy resurslarni muhofaza qilish bilan uzviy bog‘langan holda rivojlantirib borilmoqda. Milliy bog‘lar va qo‘riqlanadigan hududlar orqali ekoturizm rivojlanib, bu nafaqat ekologik muvozanatni saqlash, balki hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga ham xizmat qilmoqda. **Yangi Zelandiya** barqaror turizmni baholashda kompleks monitoring tizimini qo‘llash bilan ajralib turadi. Mamlakatda turizmning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy ta’sirlarini baholovchi ko‘plab indikatorlar joriy etilgan bo‘lib, ular orqali turizm faoliyati doimiy nazorat ostida olib boriladi. Bu esa sohani hayotga to‘g‘ri tadbiq qilishga, davlatning barqaror iqtisodiyotini yanada yaxshilashga shu bilan birga turistlar sonini yana ham ko‘paytirishga xizmat qiladi. **AQSh**da barqaror turizm iqtisodiy strategiya bilan uyg‘unlashtirilgan bo‘lib, turizm daromadini oshirish bilan bir qatorda ekologik barqarorlikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Turizmni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar, infratuzilmani modernizatsiya qilish va ekologik standartlarni joriy etish ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. AQSh hududiga tashrif buyuruvchi turistlarning ko‘p qismi asosan unga yaqin chegaradosh davlatlardan va ichki hududlardan tashrif buyiruvchilar hisoblanishadi. Ammo shunga qaramasdan, qo‘shni hududdan keluvchilar faqat son jihatidan ustun bo‘lib, iqtisodiy jihatdan ko‘proq foydani uzoq davlatlardan kelgan turistlar olib keladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi ham barqaror turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, **Kosta-Rika** ekoturizmni rivojlantirish orqali o‘zining tabiiy boyliklarini saqlab qolgan holda iqtisodiy o‘sishga erishgan. Mamlakat hududining katta qismi qo‘riqlanadigan hududlar sifatida ajratilgan bo‘lib, bu turizmni ekologik jihatdan barqaror rivojlantirish imkonini yaratgan. **Butan** esa turizmni qat’iy nazorat qilish orqali barqarorlikka erishgan. “Yuqori qiymat — past ta’sir” siyosati

asosida turistlar soni cheklangan holda yuqori daromad olishga erishilmoqda. Bu esa tabiiy va madaniy merosni saqlashga xizmat qilmoqda. **Keniya** tajribasida turizm yovvoyi tabiatni muhofaza qilish vositasiga aylangan. Turizm daromadlari hisobiga milliy bog‘lar rivojlantirilib, brakonerlik darajasi keskin kamaytirilgan. Maldiv orollarida esa turizm infratuzilmasida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish orqali ekologik barqarorlik ta’minlanmoqda.

Shu bilan birga, turizmning ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri ham muhim ahamiyatga ega. Turizm yangi ish o‘rinlarini yaratadi, mahalliy daromadlarni oshiradi va infratuzilmani rivojlantiradi. Biroq uning salbiy tomonlari ham mavjud bo‘lib, ular orasida madaniy qadriyatlarning yo‘qolishi, ijtimoiy tengsizlik va urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi kabilar kiradi. Shunday qilib, turli mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, barqaror turizmni samarali rivojlantirish uchun kompleks yondashuv zarur. Bu jarayonda ekologik muhofaza, iqtisodiy manfaat va ijtimoiy barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash asosiy vazifa hisoblanadi. Turizmni boshqarishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ekologik standartlarni kuchaytirish va mahalliy aholi ishtirokini ta’minlash barqaror rivojlanishning muhim omillari sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xulosa: Barqaror turizm zamonaviy turizm rivojlanishining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u nafaqat iqtisodiy foyda olish, balki ekologik muhofaza va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan kompleks tizim sifatida qaraladi. Tadqiqotlarga ko‘ra, turizm faoliyati atrof-muhitga sezilarli bosim ko‘rsatib, chiqindilar hajmining ortishi, karbon chiqindilarining ko‘payishi hamda tabiiy resurslarning kamayishiga olib keladi. Shu bilan birga, turizmning ijtimoiy ta’siri ham muhim bo‘lib, mahalliy aholining turmush tarzi, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy muhitiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Aholining turizmga nisbatan munosabati esa ularning ijtimoiy-demografik xususiyatlari va hududdagi turizm rivojlanish bosqichiga bog‘liq ravishda farqlanadi. Zamonaviy sharoitda raqamli texnologiyalar va elektron turizm xizmatlari turizmni boshqarish samaradorligini oshirib, uning barqarorligini ta’minlashda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, orol va tabiiy hududlarda turizm iqtisodiy rivojlanishga turtki berishi bilan birga, ekologik muammolarni ham yuzaga keltirishi mumkinligi sababli, bunday hududlarda turizmni ehtiyotkorlik bilan rejalashtirish talab etiladi. Bundan tashqari, COVID-19 pandemiyasi turizm sanoatining zaif tomonlarini ochib berib, barqaror va moslashuvchan turizm modellarini joriy etish zaruratini yanada kuchaytirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Luc Hens & An Thinh Nguyen *“Sustainable Tourism and Its Environmental and Human Ecological Effects”* 2021.
2. https://doi.org/10.3390/books978-3-0365-2234-0
3. Rob Harris, Peter Williams, Tony Griffin *“Sustainable Tourism”* 2020.
4. https://www.perlego.com/book/2192373/sustainable-tourism-pdf
5. *“World Tourism Organization”* https://www.unwto.org
6. European Travel Commission. *European Tourism Trends and Prospects Report 2025*. https://etc-corporate.org/reports/
7. Global Sustainable Tourism Council (GSTC).
8. https://www.gstcouncil.org